NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	2524
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ROLI	2530
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	2535
Usmonova Vasila Botirovna	
О‘ЗБЕКISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA XORIJIY MAMLAKATLARDA USHBU YO‘NALISHDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR BOSQICHLARI	2541
Azimov Saidumar	
YASHIL MOLIYA VA BARQAROR INVESTITSIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	2546
Omonov Otajon Juraqulovich	
ВЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ НА ПРОЦЕССЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ	2550
Юсупходжаева Гулчехра Бахадирходжаевна, Окилхонов Нодир Окилхонович	



ANALYSIS OF ENHANCING THE BUSINESS ENVIRONMENT AND DEVELOPING SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE	2555
Abduvoxidov Behzod	
KORXONALARNI QO'SHIB YUBORISH JARAYONIDA FAOLIYATI TUGATILAYOTGAN KORXONALAR MOLIYAVIY HISOBOTINI MHXS ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2567
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2575
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
TA'MINOT ZANJIRI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI	2580
B.B. Djurayev	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ASOSIY VA MOLIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	2586
Sonayev Sanjar Nurmatovich	
SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	2591
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA YANGI BIZNES-MODELLARNI SHAKLLANTIRISH	2595
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIK VA ENERGETIK TRANSFORMATSIYA SHAROITIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	2599
Salomova Sarvinoz Salimovna	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	2604
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI	2610
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
TRANSFORMASİYALASH JARAYONIDA BANK DEPOZIT BAZASINING IQTISODIY AHAMIYATI	2615
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
ELEKTRON SAVDODA ISTE'MOLCHI ISHONCHI VA RAQAMLI TAJRIBANING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI.....	2621
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	
HUDUDDA TURISTIK DESTINATSIYALARNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA OVERTOURISM TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI.....	2626
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
FUNKSIONAL HISOBNI JORIY ETISH DAVR TALABIDIR.....	2635
B.Yu. Maxsudov	
STARTAPLAR VA INNOVATSIYALAR ORQALI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2638
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO IFRS STANDARTLARIGA MOS TAHLILINI AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI (IFRS 9 VA IFRS 15 STANDARTLARINING JORIY ETILISHINING BANKLARNING FOYDA KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI).....	2641
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV XUSUSIYATLARI	2645
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
NODAVLAT OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2650
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
STRATEGIC INTERNATIONALIZATION OF UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR GLOBAL RANKINGS.....	2656
Yunusova Shirin Adxamovna	



ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	2662
Гафуров Анвар Базарбаевич	
О‘ЗБЕКISTONDA TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2667
Temirov Jonibek Abdumavlonovich	
ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	2673
Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович	
SUG‘URTA VA DAVLAT BUDJETI, YOXUD O‘ZARO MUNOSABATLARGA YANGICHA NAZAR.....	2682
Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich	
MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	2686
Madaminov In‘omjon Ozodovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2693
Faxriddinov Temur Faxriddin o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	2700
O‘ktamova Durdona Baxtiyor qizi, Mexmonov Sultonali Umaraliyevich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	2707
Mirzатов Baxtiyor Toxirovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘I MODERNIZATSIYASI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH	2713
Achilov Mashrab Urug‘bekovich	
QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2718
Djumanov Turat Alimbekovich	
KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH	2722
Rashidov Mels Karimovich, Umarov Xurshidbek Ixtiyor o‘g‘li	
KORXONALARDA RAQOBAT USTUNLIGINI YARATISHDA YANGILIKLARNI MOLIYALASHTIRISH VA XATARLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	2727
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi	
MEHNAT BOZORI KO‘RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI VA BANDLIK DARAJASI DINAMIKASI.....	2731
Qosimjonov G‘ulomjon Qosimovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHDA RISK-MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI	2735
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O‘ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI	2740
Karimov Odiljon Boqiyevich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	2746
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
BANK FILIALLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2753
Xodjakulov Akmal Erkinovich	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA‘MINLASHDA AKTIV VA PASSIVLARNING AHAMIYATI	2762
Raxmatov Xasan Utkirovich	
EKOLOGIK MA‘LUMOTLAR OQIMLARINING SHAKLLANISH JARAYONI VA AMALDAGI AXBOROT TIZIMLARINING TAHLILI	2767
Homidov Hamdam Hasanovich	



МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ МЕЧТЫ ЧЕРЕЗ НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ОТ ИНТУИТИВНОГО ОБРАЗА К СТРАТЕГИЧЕСКОМУ ДЕЙСТВИЮ	2772
Никишина Изабелла Алиевна	
MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJAT VA DAROMAD NISBATINI MODELLASHTIRISH HAMDA FOYDA BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2779
Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li	
AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY HIMOYANING DOLZARBLIGI.....	2785
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
KIBERXAVFSIZLIKNI MOLIYAVIY TIZIMLAR BARQARORLIGIDAGI O'RNI	2790
Rahmatxo'jayev Rashidxon Rixsitilla o'g'li	



KIBERXAVFSIZLIKNI MOLIYAVIY TIZIMLAR BARQARORLIGIDAGI O'RNINI

Raxmatxo'jayev Rashidxon Rixsitilla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

rashidkhon@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda kiberxavfsizlikning moliyaviy tizimlar barqarorligini ta'minlashdagi strategik o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliya institutlarining raqamli infratuzilmalarga keng integratsiyalashuvi ularning ishonchliligi va uzluksiz faoliyati kiberxavfsizlik choralarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Kiberxavfsizlikni ta'minlash moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish, bozor ishonchini mustahkamlash hamda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, kriptografiya, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va zamonaviy monitoring tizimlaridan samarali foydalanish moliyaviy xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni nafaqat texnik, balki huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida rivojlantirish zarur. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, kiberxavfsizlikni izchil mustahkamlash moliyaviy tizimlarning global barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, moliyaviy tizim, barqarorlik, raqamli infratuzilma, sun'iy intellekt, blokcheyn, xavfsizlik choralari.

Abstract. This study analyzes the strategic role of cybersecurity in ensuring the stability of financial systems. The findings indicate that the increasing integration of financial institutions into digital infrastructures makes their reliability and sustainability closely dependent on the effectiveness of cybersecurity measures. Ensuring cybersecurity plays a vital role in preventing financial losses, strengthening market confidence, and supporting economic stability. International experience confirms that the effective application of advanced technologies such as cryptography, artificial intelligence, blockchain, and modern monitoring systems significantly enhances financial security. Furthermore, cybersecurity should be developed not only as a technical component but also as a comprehensive system incorporating legal, organizational, and social dimensions. The study concludes that strengthening cybersecurity is a key prerequisite for ensuring global financial stability and achieving sustainable long-term economic growth.

Key words: cybersecurity, financial systems, stability, digital infrastructure, artificial intelligence, blockchain, security measures.

Аннотация. В данном исследовании научно обоснована стратегическая роль кибербезопасности в обеспечении стабильности финансовых систем. Результаты показывают, что расширенная интеграция финансовых институтов в цифровую инфраструктуру обуславливает прямую зависимость их надежности и устойчивого функционирования от эффективности мер кибербезопасности. Обеспечение кибербезопасности способствует предотвращению финансовых потерь, укреплению доверия на рынке и поддержанию экономической стабильности. Международный опыт подтверждает, что использование современных технологий, таких как криптография, искусственный интеллект, блокчейн и системы мониторинга, значительно повышает уровень финансовой безопасности. Кроме того, кибербезопасность следует рассматривать не только как технический, но и как комплексный правовой, организационный и социальный механизм. Основным выводом исследования заключается в том, что последовательное укрепление кибербезопасности является важным условием обеспечения глобальной финансовой стабильности и достижения устойчивого долгосрочного экономического роста.

Ключевые слова: кибербезопасность, финансовые системы, стабильность, цифровая инфраструктура, искусственный интеллект, блокчейн, меры безопасности.

KIRISH

Kiberxavfsizlik zamonaviy moliyaviy tizimlarning barqarorligi va uzluksiz faoliyatini ta'minlashning muhim strategik omillaridan biriga aylanmoqda. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida moliya institutlari bank xizmatlari, elektron to'lovlar, onlayn kreditlash va investitsiya platformalari kabi ko'plab operatsiyalarni



raqamli muhitda amalga oshirmoqda. Mazkur jarayon moliyaviy xizmatlarning tezkorligi, qulayligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgan bo'lsa-da, moliyaviy infratuzilmalarga nisbatan kiberxavflarga qarshi barqaror himoya tizimini shakllantirish zaruratini ham kuchaytirmoqda. Xususan, ruxsatsiz kirish, fishing, ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlar, to'lov tizimlariga qaratilgan zararli harakatlar va murakkab kiberhujumlar moliya sektorining barqaror faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli moliyaviy tizimlarning ishonchligi nafaqat alohida moliya institutlari, balki milliy va global iqtisodiyot barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlikning moliyaviy tizimlar barqarorligidagi o'rni bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, u mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy xizmatlar xavfsizligi ta'minlangan sharoitda mijozlarning bank va boshqa moliya institutlariga bo'lgan ishonchi ortadi, bu esa moliya tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kiberxavfsizlik moliya institutlari va to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Xalqaro va milliy to'lov tizimlarining barqaror faoliyati iqtisodiy jarayonlarning muvozanatli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar tomonidan real vaqt rejimidagi monitoring, zamonaviy himoya protokollari va xavfsizlik mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlarning milliy iqtisodiy barqarorlik va global moliya tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda moliya sektori infratuzilmasining samarali himoyasi iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik nafaqat texnologik, balki institutsional va strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan ham kiberxavfsizlik moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Natijada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliya institutlari tomonidan zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish, xavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish va raqamli barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlarning barqarorligi, mijozlar ishonchi, to'lov tizimlarining uzluksizligi hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Shu bois moliya sektorida zamonaviy kiberxavfsizlik mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kompleks himoya tizimini shakllantirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Natijada kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlar uchun nafaqat himoya vositasi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish va global raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kiberxavfsizlik va moliyaviy tizimlar barqarorligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida so'nggi yillarda xalqaro va milliy miqyosda keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Xususan, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi hamda Bank for International Settlements tomonidan ushbu sohada qator analitik hisobotlar va strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatlarda moliyaviy tizimlarning barqaror faoliyatini ta'minlashda kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Bank for International Settlements tomonidan e'lon qilinayotgan "Cyber Resilience" hisobotlarida moliya sektorining kiberbarqarorligini oshirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy institutlarning raqamli himoya darajasini kuchaytirishning asosiy mexanizmlari asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ham kiberxavfsizlikning moliyaviy barqarorlikka ta'siri turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, G. Smith, A. Johnson va J. Kopp kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda moliya sektorida yuzaga keladigan kiberxavflarning turlari, ularning iqtisodiy oqibatlarini hamda moliya institutlarida kiberxavflarni samarali boshqarish mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda kriptografiya, blokcheyn texnologiyalari hamda sun'iy intellekt asosida ishlovchi monitoring tizimlarining moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Milliy miqyosda ham kiberxavfsizlikni rivojlantirish masalalari dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan qabul qilingan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid strategik hujjatlarda moliyaviy tizimlarda axborot xavfsizligini ta'minlash, zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish va raqamli infratuzilma barqarorligini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bank tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash, elektron to'lov tizimlarining ishonchligini oshirish va mijozlar ishonchini mustahkamlash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlar barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida xalqaro miqyosda keng o'rganilgan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston sharoitida kiberxavfsizlikning moliyaviy barqarorlikka



ta'sirini kompleks iqtisodiy va institutsional yondashuvlar asosida chuqur o'rganish zarurati mavjud. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning muhimligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda moliyaviy tizimlarda kiberxavfsizlikning barqarorlikka ta'siri tizimli tahlil usuli orqali o'rganildi. Ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliy misollar asosida taqqoslash va qiyosiy yondashuv qo'llanildi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi solishtirilib, asosiy muammolar va samarali yechimlar aniqlab chiqildi. Olingan natijalar asosida umumlashtirish va nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kiberxavfsizlikning moliyaviy tizimlar barqarorligidagi o'rni chuqur tahlil qilinganda, birinchi navbatda, ushbu sohada kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar va mavjud muammolar e'tiborga olinadi. Bugungi kunda moliya institutlari faoliyati to'liq raqamli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, barcha jarayonlar — mijozlar hisoblarini yuritish, elektron to'lovlarni amalga oshirish, xalqaro hisob-kitoblar, onlayn kreditlash va investitsiya xizmatlari — internet va axborot texnologiyalari orqali boshqariladi. Shu sababli tizimning barqarorligi kiberxavfsizlik choralarining mustahkamligi bilan bevosita bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank sektoridagi yirik kiberhujumlar nafaqat moliyaviy yo'qotishlarga, balki butun tizimning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Misol tariqasida, 2016-yilda Bangladesh Markaziy bankiga uyushtirilgan kiberhujum oqibatida 81 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' o'g'irlangan, bu esa nafaqat moliyaviy, balki xalqaro obro'-e'tiborga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday holatlar moliya tizimida ishonchning pasayishi, investorlar faolligining kamayishi va kredit reytinglarining pasayishiga olib keladi.

Kiberxavfsizlikning yetarli darajada ta'minlanishi moliya tizimida uchta asosiy ustuvorlikni kafolatlaydi: birinchidan, mijozlar ishonchini mustahkamlash; ikkinchidan, moliyaviy muassasalarning uzluksiz faoliyatini ta'minlash; uchinchidan esa milliy va xalqaro moliyaviy tizimlar barqarorligini qo'llab-quvvatlash. Moliyaviy tizimning eng katta xatarlaridan biri to'lov tizimlari va xalqaro hisob-kitob jarayonlariga qaratilgan kiberhujumlardir. Real vaqt rejimida amalga oshiriladigan xalqaro tranzaksiyalar soniyalar ichida milliardlab mablag'larning o'tkazilishini ta'minlaydi, shu sababli ushbu tizimdagi eng kichik uzilish ham likvidlik muammolari va bozor beqarorligiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik nafaqat texnologik, balki huquqiy, tashkiliy va strategik omil sifatida ham qaralishi zarur. Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda moliya sektoridagi kiberxavfsizlik infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, regulyatorlarning normativ-huquqiy bazasi esa zamonaviy tahdidlarga mos ravishda takomillashtirishni talab etadi. Natijada, ayrim moliya institutlarida xavfsizlik darajasini yanada mustahkamlash zarurati mavjud.

Rivojlangan davlatlarda esa kiberxavfsizlikka katta e'tibor qaratilishi, zamonaviy kriptografik texnologiyalar, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan monitoring tizimlari va ilg'or xavfsizlik protokollarining joriy etilishi moliyaviy barqarorlikni sezilarli darajada mustahkamlamoqda.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, kiberxavfsizlik nafaqat alohida bank yoki moliya tashkilotini himoya qiladi, balki butun moliyaviy ekotizim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, bitta bankka qilingan kiberhujum banklararo hisob-kitob tizimlariga ham ta'sir ko'rsatishi va butun moliyaviy tizim faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli xalqaro hamkorlik, ma'lumot almashinuvi va kiberxavfsizlik bo'yicha umumiy standartlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) kabi tashkilotlar moliya sektorida kiberxavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha muhim strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlar barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, uni yetarli darajada ta'minlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish orqali moliya tizimining ishonchliligi, samaradorligi va global barqarorligi ta'minlanadi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi.

Kiberxavfsizlikning moliyaviy tizimlar barqarorligidagi o'rni kengroq yondashuv asosida ko'rib chiqilganda, ushbu jarayonning texnik jihatlari bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tizim global iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, u milliy va xalqaro miqyosda kapital oqimi, investitsiyalar va savdo jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tizimning ishonchliligi esa raqamli xavfsizlik choralarining samarali tashkil etilishiga bog'liq.



Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlarning katta qismi internet orqali amalga oshirilayotganligi sababli, kiberxavflarning iqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda fishing, DDoS, ransomware, ma'lumotlarni noqonuniy egallash va soxta tranzaksiyalar kabi kiberxavf turlari moliyaviy tizimlar uchun muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy tizimlarning ushbu tahdidlarga qarshi barqarorligi esa ularning kiberxavfsizlik infratuzilmasi rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash moliyaviy tizimlarda uch asosiy yo'nalishda ijobiy natija beradi: birinchidan, mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va moliyaviy resurslari himoya qilinadi; ikkinchidan, moliya institutlarining uzluksiz faoliyati ta'minlanadi; uchinchidan, moliyaviy tizimga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshiradi.


Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik masalalarini faqat moliyaviy muassasalar darajasida hal etish yetarli emas, balki hukumat darajasida ham samarali nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish, mukammal qonunchilik bazasini shakllantirish va milliy strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida moliyaviy sektor uchun maxsus kiberxavfsizlik standartlari va sertifikatlash tizimlari joriy etilgan bo'lib, bu banklar va boshqa moliya institutlarining axborot xavfsizligini muntazam ravishda takomillashtirishiga va ushbu sohaga barqaror investitsiyalar kiritilishiga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv milliy moliya tizimlarining global kiberxavf omillariga nisbatan barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu yo'nalishda rivojlanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Jumladan, infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va kiberxavfsizlik sohasiga investitsiyalar hajmini oshirish orqali moliyaviy tizimlarning barqarorligini yanada mustahkamlash mumkin. Shuningdek, aholining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim va targ'ibot dasturlarini kengaytirish moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa moliyaviy tizimlarning samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Mazkur holat moliyaviy tizimlarda barqarorlikni ta'minlash uchun nafaqat texnologik chora-tadbirlarni amalga oshirish, balki keng qamrovli ta'lim dasturlarini joriy etish, aholining kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish hamda biznes sektorida zamonaviy va mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy tizimlarda kiberxavfsizlikning iqtisodiy samaradorligi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, zamonaviy kriptografik tizimlar, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan monitoring vositalarini joriy etish dastlab ma'lum miqdordagi investitsiyalarni talab qilsa-da, uzoq muddatli istiqbolda ushbu yechimlar moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish, operatsion xavflarni kamaytirish va tizim samaradorligini oshirish orqali muhim iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, xavfsizlik choralarining mustahkamlanishi mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi, bu esa yangi mijozlarni jalb etish va mavjud mijozlar bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, kiberxavfsizlikka yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat xavflarni kamaytirishga, balki moliyaviy institutlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Kiberxavfsizlik va investitsiyasi va yo'qotishlarni qoplash¹

1 Muallif ishlanmasi



Kiberxavfsizlikning moliyaviy tizimlar barqarorligiga qo'shadigan hissasi xalqaro miqyosda ham katta ahamiyatga ega. Xalqaro savdo va investitsiyalar oqimi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda, biror bir mamlakatdagi moliyaviy tizimning izdan chiqishi butun mintaqaga yoki global bozorga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari hamkorlikda yagona standartlar, protokollar va xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, Bank for International Settlements (BIS) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) moliyaviy tizimlarda kiberxavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan global strategiyalarni ishlab chiqib, mamlakatlarga tavsiyalar bermoqda.

Kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlarning strategik barqarorligi uchun asosiy tayanchlardan biridir. Kiberhujumlarning oldini olish, tahdidlarni aniqlash va ularga tezkor javob qaytarish orqali moliya institutlari nafaqat o'z faoliyatini himoya qiladi, balki milliy va global iqtisodiy xavfsizlikka ham hissa qo'shadi. Natijada, moliya tizimlari raqamli davrda ishonchli, samarali va barqaror faoliyat yuritadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investorlarni jalb qilish va jamiyatda moliyaviy ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik moliyaviy tizimlarning barqarorligi va ishonchligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Kiberhujumlarning kuchayishi nafaqat alohida bank yoki moliyaviy muassasaga, balki butun milliy va xalqaro iqtisodiy tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mavjud xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi, balki moliya tizimining ishonchligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi va global barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Shu nuqtayi nazardan, kiberxavfsizlikni samarali boshqarish moliyaviy tizimlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, R. (2020). *Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems* (3rd ed.). Wiley Publishing.
2. International Monetary Fund (IMF). (2020). *Cybersecurity Risk Supervision*. IMF Policy Paper.
3. Kshetri, N. (2016). *Cybersecurity and international relations*. *Journal of Global Information Technology Management*, 19(2), 82–95.
4. World Bank. (2019). *Financial Sector's Cybersecurity: A Global Perspective*. Washington, DC: World Bank.
5. European Central Bank (ECB). (2022). *Cyber Resilience Oversight Expectations for Financial Market Infrastructures*. Frankfurt am Main.
6. Deloitte. (2020). *The Future of Cybersecurity in Financial Services*. Deloitte Insights.
7. Murodov, Sh. (2022). *Moliya tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash omillari*. *O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi Ilmiy jurnali*, №3, 45–52.
8. Smith, M., & Brooks, D. (2017). *Cybersecurity: Managing Systems, Conducting Testing, and Investigating Intrusions*. Routledge.
9. World Economic Forum (WEF). (2021). *Cybersecurity Leadership Principles: Lessons Learned During the COVID-19 Pandemic*. Geneva: WEF.
10. Federal Reserve Bank of New York & SWIFT. (2016). *Bangladesh Bank Heist Case Report*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>